

**O'ZBEKISTON FUQAROLARINING QONUNCHILIK TASHABBUSI HUQUQI:
AMALIY AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

Niyatova Nilufar Abdurazakovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti "Davlat boshqaruvi" magistratura yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston fuqarolarining qonunchilik tashabbusi huquqi konstitutsiyaviy norma sifatida belgilangani holda, uning amaldagi ijrosi, mavjud muammolar xalqaro tajriba bilan taqqoslangan holda tahlil qilingan. Qonunchilik tashabbusining amaliy mexanizmlari yetarlicha shakllanmagani, elektron platforma va reglamentlarning yo'qligi ushbu institutning to'liq ishlashini cheklayotgani ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga Shveytsariya va Avstriya tajribasi asosida taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, qonunchilik tashabbusi, demokratik ishtirok, parlament, elektron imzo.*

Abstract: *This article analyzes the right of legislative initiative of citizens of Uzbekistan, established as a constitutional norm, its current implementation, existing problems, and compares it with international experience. It is shown that the practical mechanisms of legislative initiative are not sufficiently formed, and the lack of an electronic platform and regulations limit the full functioning of this institution. At the same time, proposals and recommendations are put forward based on the experience of Switzerland and Austria.*

Keywords: *Constitution, legislative initiative, democratic participation, parliament, electronic signature.*

Demokratik jamiyatda fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etishi muhim siyosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlar ichida qonunchilik tashabbusi huquqi alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvofiq, saylov huquqiga ega bo'lgan yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Bu norma fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayoniga ishtirok etishi uchun yaratilgan muhim demokratik kafolatdir.

Ammo ushbu huquqning amaliyotda to'liq ishlamasligi, uni amalga oshirish mexanizmlarining yo'qligi mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirib, uni chuqur o'rganishni talab etadi.

Fuqarolar qonunchilik tashabbusining huquqiy asoslari

Konstitutsiyada fuqarolar tashabbusi huquqi belgilab berilgan bo'lsa-da, amalda uni tartibga soluvchi qonunchilik normalari yetarli darajada emas. Bu boradagi ba'zi talablar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi Qonunning 19¹ -moddasida qisman aks etgan. Mazkur modda quyidagi talablarni belgilaydi:

- imzolar kamida sakkizta hududiy subyektda, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida mutanosib ravishda to'plangan bo'lishi;

- imzolar sonida yo'l qo'yiladigan chetlanish 10%dan oshmasligi.

Biroq mazkur Qonunda ushbu talablarni amalga oshirishning aniq mexanizmlari nazarda tutilmagan.

Qonunchilik tashabbusi jarayonining nazariy bosqichlari

Fuqarolar tashabbusining nazariy modelini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1-bosqich: Qonun loyihasi matnini ishlab chiqish – bu jarayonning huquqiy tartibi normativ hujjatlarda belgilanmagan;

2-bosqich: Imzo to'plash – buni amalga oshirish uchun elektron platforma mavjud emas;

3-bosqich: Loyihani Oliy Majlisga kiritish – amaliyotda fuqarolar tomonidan kiritilgan birorta ham qonun loyihasi ro'yxatga olinmagan;

4-bosqich: Parlament ko'rib chiqishi – qonun qabul qilinishi yoki rad etilishi.

Fuqarolarning tashabbusi huquqiy asosga ega bo'lsada, ammo amalda hozirgacha fuqarolar tashabbusi bilan to'g'ridan to'g'ri qonun loyihasi kiritilgan holat bo'lmagan.

Mavjud muammolar

Fuqarolar tashabbusi institutining amalda faoliyat yuritmasligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Fuqarolar yoki guruhlar tomonidan jamiyatdagi qonun yo'li bilan tartibga solinishga muhtoj bo'lgan muammoni ko'tarib chiqish yetarli huquqiy ong va siyosiy faollikni talab qiladi, biroq davlatimizda ushbu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarining roli mustahkamlanmaganligi;

- Imzo yig'ish talablarining murakkab bo'lishi va elektron imzodan foydalanish nazarda tutilmaganligi;

- Ushbu jarayonni to'liq tartibga soladigan qonun yoki nizom mavjud emasligi.

Bu omillar konstitutsiyaviy normaning amaliyotda ishlamay qolishiga olib kelmoqda.

Fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqini «Mening fikrim» veb-portali orqali elektron murojaat xizmati orqali amalga oshirish imkoniyati ham qisman mavjud bo'lib, ushbu platformaning vazifasi fuqarolar tashabbuslarini to'plash va jamoatchilik fikrini davlat organlariga yetkazishdan iborat.

Biroq, «Mening fikrim» veb-portali orqali elektron jamoaviy murojaatlar berish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi Nizomda aynan qonunchilik tashabbusi haqida aytilmagan. Qolaversa, jarayonning natijasi qonun yaratishga olib kelmaydi va bu qonunchilik tashabbusi huquqi bilan teng emas, shuningdek, maksimal to'planishi lozim bo'lgan ovozlar miqdori 10 mingga yetkaziladi va bu qonunchilik tashabbusi uchun yetarli emas

Xalqaro tajriba: Shveytsariya va Avstriya misolida

Shveytsariya

Shveytsariya qonunchilik tashabbusi huquqini eng mukammal tartibga solgan davlatlardan biri hisoblanadi. Asosiy hujjatlar:

1. **Federal Konstitutsiya (138–139-moddalar)** – 100 000 fuqaro 18 oy ichida konstitutsiyaviy tashabbus kiritishi mumkin.
2. **Federal Act on the Federal Assembly (ParlA)** – parlament tomonidan tashabbuslarni ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.
3. **Federal Act on Political Rights** – fuqarolarning siyosiy ishtirokini tartibga soluvchi qonun.

Avstriya

Avstriyada fuqarolar tashabbusi **Volksbegehrensgesetz 2018** Qonuni bilan tartibga solinadi. U elektron imzo, raqamli platforma va imzo to'plash jarayonining aniq reglamentlarini o'z ichiga oladi.

Amaliy misollar: **2020-yil** — iqlim muhofazasini kuchaytirish tashabbusi — **380 590** imzo, **2018-yil** — gender tengligi tashabbusi — **100 000** dan ortiq imzo, **2017-yil** — AQSH va Kanada bilan erkin savdo kelishuvlariga qarshi tashabbus — **562 552** imzo to'plagan.

Bu misollar Avstriyada demokratik ishtirokning yuqori darajasini va elektron hukumat infratuzilmasining rivojlanganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda bu institut to'liq shakllanmagan va fuqarolarning huquqiy ishtirok imkoniyatlari cheklangan. Mexanizmning yetarli darajada tartibga solinmaganligi, elektron infratuzilmaning mavjud emasligi hamda huquqiy va institutsional tayyorgarlikning pastligi ushbu huquqning samarali ishlamasligiga olib kelmoqda.

Shveytsariya va Avstriya tajribasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda fuqarolar tashabbusi institutini rivojlantirish uchun:

- elektron imzo asosida ishlovchi yagona platforma yaratish;
- qonunchilik tashabbusini amalga oshirish tartibini belgilaydigan maxsus qonun qabul qilish;
- imzo to'plash va loyihani rasman kiritishning shaffof mexanizmlarini ishlab chiqish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash zarur.

Ushbu institutni rivojlantirish demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, parlament va fuqarolar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirish hamda huquqiy davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992, yangi tahrir).
2. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi Qonun. (2003).

3. “Mening fikrim” portali orqali elektron jamoaviy murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi Oliy Majlis qo‘shma qarori. (2025).
4. Federal Constitution of the Swiss Confederation (1999).
5. Federal Act on the Federal Assembly (ParlA) (2002).
6. Federal Act on Political Rights (1976).
7. Volksbegehrensgesetz 2018 (Avstriya).